

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISH METODLARI

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti, Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

E-mail: fazilatf948@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi lug‘at boyligini oshirishning metodlari va so‘z yodlashning yoshga mos texnikalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: aktiv lug‘at, passiv lug‘at, til ko‘nikmalari, flashkartalar, mnemonika.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ СЛОВАРНОГО СЛОВА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Юсупалиева Фазилат Юсупалиевна

Термезский государственный педагогический институт,

Иностранный язык и литература (английский язык)

магистрант 1 курса

Э-почта: fazilatf948@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы увеличения английского словарного запаса учащихся младших классов и соответствующие возрасту приемы запоминания слов.

Ключевые слова: активный словарный запас, пассивный словарный запас, языковые навыки, карточки, мнемоника.

METHODS OF INCREASING THE VOCABULARY OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

Termez State Pedagogical Institute,

Foreign language and literature (English)

1st year master's student

E-mail: fazilatf948@gmail.com

Annotation: This article discusses the methods of increasing the English vocabulary of elementary school students and the age-appropriate techniques of memorizing words.

Key words: active vocabulary, passive vocabulary, language skills, flashcards, mnemonics.

KIRISH.

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan davrda chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xorijiy tillarda erkin muloqot qila olish zamon talabiga aylandi. Shu va boshqa bir qancha sabablar tufayli Respublikamizda ham chet tillarini maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limda ham o'qitishning uzluksiz tizimi joriy etilgan. Barchamizga ma'lumki, til o'rganish uzoq vaqt oladigan jarayondir. Shu boisdan bolalarga til o'rganish konikmalarini yoshliklaridan o'rgatib borish foydadan holi emas. Zero, o'zbek xalqining "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", – degan maqoli bejizga emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Leksikologiya va lug'at boyligini oshirish metodikasi masalasiga ko'plab tadqiqotchilar e'tibor qaratganlar. Ingliz tilini o'qitish metodikasida hozirgi kungacha bir qancha olimlar ish olib borganlar va turlicha xulosalarga kelishganlar. Jumladan, ingliz tilini o'qitish metodikasi haqida ko'plab kitoblar yozgan Jeremy Harmerning fikriga ko'ra, ikki turdagi lug'at mavjud: faol (aktiv) va nafaol (passive). Ushbu masala borasida tadqiqotchilar T.Bushuy va Sh.Safarovlar "Hozirgi vaqtda lug'at boyligini oshirish muammolari tilshunoslarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Zero, til madaniyati, eng avvalo, ilmiy xulosalar va ijtimoiy amaliyot natijalari asosida o'rnatilgan, lisoniy fikrlashning aniqligini ta'minlaydigan til normalari, uning lug'at boyligi, frazeologik zaxirasidan iboratdir" [2] deb ta'kidlaydi. Rus tilshunosligida frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'ati rejasini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq (Rossiya) maqollari",

“frazeslar” va “idiomatizmlar” o‘z ifodasini topishi lozimligini alohida ta’kidlagan edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirish metodlariga bag‘ishlangan bo‘lib, mavzuni to‘liqroq yoritib berish uchun taqqoslash, analiz, sintez kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Lug‘at o‘rganish – til o‘rganishdagi eng muhim jarayondir. Chunli erkin muloqot qila olish uchun yetarli miqdorda lug‘atga ega bo‘lish lozim. Aktiv lug‘at – faol foydalaniladigan, suhbat jarayonida va yozishda ishlatilnadigan so‘z va iboralar tushuniladi. Bu so‘zlar muloqot jarayonida va yozishda osongina esga tushadi. Masalan, ingliz tilida “chiroyli” so‘zining “attractive”, “gorgeous”, “magnificent” shu va boshqa o‘nlab ma’nodoshlari bor, ammo so‘zlashuv jarayonida “beautiful” so‘zi ko‘p hollarda birinchi bo‘lib xotiraga keladi va ishlatiladi va mana shu “beautiful” so‘zi aktiv lug‘at hisoblanadi. [1]

Passive lug‘at – nofaol lug‘atlar o‘qiganda yoki eshitilgan vaqtda tushuniladi lekin kam hollarda ishlatiladigan so‘zlar, so‘z birikmalaridir. Bu kabi so‘zlarning ma’nosini inson tushunadi, lekin suhbat jarayonida deyarli ishlatmaydi. Yuqorida keltirilgan “gorgeous”, “attractive”, “magnificent” kabi so‘zlar aksariyat hollarda kam ishlatilganligi uchun passive lug‘atlar turkumiga misol bo‘la oladi.

Maktab yoshidagi o‘quvchilarga lug‘at o‘rganishning bir qancha muhim maqsadlari va foydalari bor: Bu og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun muhim. O‘quvchilar fikrlarini qanchalik erkin, ravon va aniq qilib tushuntirib bera olishsa, darslar ham ular uchun qiziqarli bo‘lib boraveradi. Albatta, bu jarayonda o‘qituvchidan ham talab qilinadigan vazifalar bor. [3]

Reading – o‘qish til ko‘nikma malakasini oshirishga yordam beradi. Uyga vazifa sifatida berilgan hikoyalar, she’rlar va qo‘shimcha ravishda kitob o‘qiganda ham so‘zlarni ma’nosini tushunishda yuzaga keladigan muammolarning oldini oladi.

45 daqiqalik darsda bola diqqatini to'raligicha jalb etib bo'lmaydi. Sababi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq va tez dars mashg'ulotlaridan zerikib qolishadi. Chet tillarini o'qitish jarayonida diqqatni jalb etish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Har bir yangi mavzuga oid bo'lgan so'zlarni o'rgatish paytida o'qituvchi lug'atlarni aytadi, o'quvchilar esa takrorlashadi. Bu jarayonda esa o'qituvchining pedagogik mahorati sinovdan o'tadi. Ya'ni o'quvchilarning yoshi, qiziqishi va o'rganish uslubiga qarab so'z o'rgatish metodikasini ishlab chiqishi zarur. Bu esa darsning qiziqarli va sifatli o'tishini ta'minlaydi. Yetarlicha lug'at boyligiga ega bo'lmaslik o'quvchilarning til o'rganishiga to'sqinlik qiladi. Agar o'quvchi so'z boyligini oshirmasa, til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotadi. [3] Dars jarayonida yangi so'zlarni tanishtirishni va takrorlashning bir necha xil qiziqarli usullari bor. Samarali mashqlar so'z o'rganishda o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Ular so'zlarni takrorlashni, o'zaro bog'lanishni birinchi o'ringa qo'yadi, ham shaklga ham ma'noga e'tibor beradi. [4]

Mashqlar uchta darajaga bo'linadi:

So'z darajasi. So'zlar alohida o'rganiladi, uning ma'nosi, talaffuzi, grammatika jihatdan turkumi va boshqa xususiyatlari o'rganiladi.

Gap darajasi. So'zlar gapda ishlatiladi va qaysi so'zlar bilan so'z birikmalari hosil qila olishi o'rganiladi.

Ravonlik darajasi. So'zlar paragraflarda yoki uzunroq gaplarda o'rganiladi, ko'pincha aniqlik va ravonlikka e'tibor qaratiladi. [5]

Quyida ular haqida ma'lumotlar beriladi:

Fleshkartalardan foydalanish – o'quvchilarning so'z boyligini oshirishning dastlabki bosqichida keng foydalaniladi. Kartochkalar rasmlardan, so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplardan iborat bo'ladi. Yosh til o'rganuvchilar uchun esa shunchaki so'zlarni oddiy usulda takror-takror aytgandan ko'ra rasmlar bilan o'rganish maroqli jarayondir. So'zlar qayta so'ralganda, bolalar avval rasmni xotiralarida eslashadi, so'ng javob beradi. Bu esa o'z navbatida miya faoliyatiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi, bolalarni qisqa vaqt ichida javob berishlariga turtki

bo‘ladi. Fleshkartalarni istalgan mavzu yuzasidan tayyorlab foydalanish imkoni bor. Quyida ularning qay holatlarda ishlatilishiga misollar berilgan:

Sinfidagi o‘quvchilarga fleshkartalardan bir qanchasini berish va ulardan foydalangan holda hikoya tuzishni taklif qilish;

Bitta rasimli flashkartani ko‘rsatib uni tasvirlashni so‘rash va bu yo‘l bilan o‘quvchilarning qanchalik darajada tezkor ekanliklarini bilish mumkin.

Ma‘nodosh so‘zlar bilan so‘z o‘rgatish orqali bolalar dars davomida bitta so‘zning o‘nlab ma‘nodoshlarini va ularning ishlatilish o‘rinlarini bilishlari mumkin. Dars jarayonida turli xil usullardan foydalangan holda o‘rgatish mumkin.

Masalan: Avval o‘quvchilarning yoshi va o‘rganiladigan mavzu yuzasidan so‘z, so‘zlar yoki so‘z birikmalari tanlab olinadi. Multimedia vositalaridan foydalangan holda video darslik orqali o‘rgatish mumkin.

Mavzuga oid ma‘nodosh so‘zlar o‘rgatilgandan so‘ng, avvaldan tayyorlangan birorta matn, kichik hikoyadagi ma‘nodosh so‘zlarni topish vazifasini berish mumkin.

Mnemonika (yunoncha: μνημονικός “mnēmonikos” — eslab qolish san’ati) — sun’iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo‘li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Bu jarayonda yangi bo‘lgan tushunchalar inson ongida oldin saqlanib qolgan ma‘lumotlar bilan bog‘lanadi va natijada ma‘lumotni eslab qolish osonlashadi. Darsda bu texnikadan foydalanish juda ham o‘rinli bo‘ladi. Masalan, “Family” mavzusida o‘quvchilarning otionalari, opa-singillari, va boshqa qarindoshlarini ismi bilan aytish orqali ham texnikadan foydalanish mumkin.

My father’s name is.....

My mother’s name is.....

My uncles’ names are

My grandparents’ names are....

Bu jarayonda nafaqat lug‘at yodlanadi, takrorlanadi, balki yaqin qarindoshlarni ko‘rganda ham eslariga keladi.

O'quvchilar o'zlari uchun lug'at daftar tutishlari kerak. Har bir turkumga oid bo'lgan so'zlarni turli xildagi ruchkalar bilan yozishga harakat qilishlari kerak. Bu yo'l bilan ular so'z yodlash bilan bir qatorda, qaysi so'z turkumlariga oid ekanliklarini ham o'rganib boraverishadi.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Respublikamizda chet tillarini o'qitish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xorijiy tillarni o'qitish sifati yaxshilanib bormoqda. Ushbu islohotlarning yanada samarali bo'lishi uchun yosh avlodga lug'at boyligini oshirish, til bilish ko'nikmalarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlar orqali ta'lim-tarbiya berish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. va boshqalar. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006. – B.42.
2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 55
3. J.J.Jalolov, G.T.Mathkamova, Sh.SAshurov "English language teaching methodology", "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2015, 112-B.
4. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991. – B. 218.
5. Mariane Celce-Murcia, Donna M. Brinton, Marquerite Ann Snow "Teaching English as a second or foreign language", Heinle&Heinle Publishers, 2001, 294 p.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. // www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 27-195.
7. Oxford Advanced Learner's Dictionary 9th edition Oxford university press, 2015. – P.490 -1348.